


Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining matematika va informatika fanlari oyligida o'tkazilgan ochiq darslar, tadbirlar

Matematika fani o'qituvchilari orasida «Matematikani o'qitishda masalalar yechish texnologiyalari» - mavzusida, samarali dars – uni namunali rejalashtirish, metod va usullarning xilma-xilligi, fanlararo bog'lanish, xayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, natijaviylik, qiziquvchanlik, faollikka erishish masalalariga qaratilgan davra suhbat o'tkazildi, bunda metodbirlashma a'zolari ishtirok etdilar.

Ochiq darslar haftaligida metodbirlashma a'zolaridan X.Arifjanova 5-“A ” sinfda “O'nli kasrlarning yozilishi va o'qilishi”, J.Abduraxmanova “6-B” sinfda “ Manfiy ishorali sonlarni qo'shish”, M.Vahobov “6-V” sinfda “ Koordinatalar to'g'ri chizig'ida sonlarni qo'shish ”, F.Botirova “7-A” sinfda “Uchburchak ichki burchaklarining yig'indisi ”, M.Komilov “8-A” sinfda “ Kvadrat tenglama va uning yechimi ”, F.Begimqulov “9-V” sinfda “Muntazam ko'pburchaklar”, F.Umarova “6-A” sinfda “ Hujjatlar bilan ishlash ” mavzularida ochiq darslar tashkil qilishdi.







Boshlang'ich sinflarda D.Tosheva "2-A" sinfda "Noma'lumlarni topish", "4-A" sinfda "Nisbatlar usuli bilan yechiladigan masalalar", G.Qodirova "3-A" sinfda "Vaqt o'lchov birliklari", L.Nabiyeva "4-V" sinfda "Umumlashtiruvchi dars", mavzularida ochiq darslar tashkil qilishdi. Bundan tashqari 5- sinflar uchun "Quvnoq ekspress", 6-sinflar uchun "Yosh bilimdonlar", 8-sinflar orasida "Matematik futbol", 9-sinflar uchun "Bilimdonlar va zukkolar" musobaqalari bo'lib o'tdi.



Matematika fanining ravnaqiga hissa qo'shgan O'rta Osiyolik olimlar"
mavzusida to'garaklarning ochiq mashg'ulotlarini tashkil etildi.



